



## XALQ DEPUTATLARI NAVOIY VILOYATI KENGASHINING QARORI

2024-yil 24-may

VI-73-55-5-0-K/24

Navoiy viloyati

### Navoiy viloyati "Issiqlik manbai" DUK tomonidan ko'rsatiladigan issiqlik ta'minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) miqdorini ma'qullash to'g'risida

"2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 13-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-sentabrdagi "Yoqilg'i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 475-son qarori, viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasining 2024-yil 22-apreldagi (01-22/1687-sonli), viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 16-apreldagi (01-12/20-09-32/240-sonli) va Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi viloyat hududiy boshqarmasining 2024-yil 20-martdagi (N-06-01/02-04-726-sonli) xulosalariga asoslanib, Navoiy viloyati "Issiqlik manbai" DUK tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar samaradorligini oshirish hamda korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish maqsadida xalq deputatlari viloyat Kengashi

### QAROR QILADI:

1. Navoiy viloyati "Issiqlik manbai" davlat unitar korxonasi direktori v.v.b. O'. Elovning issiqlik energiyasi xizmatlari tariflari yuzasidan taqdimoti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Navoiy viloyati "Issiqlik manbai" DUK tomonidan ko'rsatiladigan issiqlik ta'minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) miqdori ilovaga muvofiq ma'qullansin.

3. Viloyat hokimining o'rinbosari (E. Kamolov) Navoiy viloyati "Issiqlik manbai" DUK tomonidan ko'rsatiladigan issiqlik ta'minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) miqdorini tasdiqlash to'g'risida viloyat hokimining qaror loyihasini o'rnatilgan tartibda ishlab chiqsin.

4. Viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi (A. Niyozov), Navoiy viloyati "Issiqlik manbai" DUK (O'. Elov) kuz-qish mavsumida uzluksiz issiqlik ta'minoti bilan ta'minlanishi bo'yicha zaruriy choralarni ko'rsin.

5. Viloyat hokimligi axborot xizmati – matbuot kotibi (Sh. Raubayeva), viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (D. Mamarajabov), viloyat teleradiokompaniyasi (G. Sultonov), “Do‘stlik bayrog‘i” va “Знамя дружбы” gazetalari tahririyati davlat korxonasi (B. Umarov)ga olib borilayotgan ishlarni doimiy ravishda ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimi o‘rinbosari (E. Kamolov) hamda xalq deputatlari viloyat Kengashining sanoat, transport, qurilish, kommunal xo‘jaligi masalalari va aholiga xizmat ko‘rsatish doimiy komissiyasi (S. Bazarova) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiyada raislik qiluvchi



HAMRAYEV  
JAMOLIDDIN  
JUMAQULOVICH

Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining  
2024-yil 24-maydagi  
VI-73-55-5-0-K/24 -son qaroriga  
1-ilova

**“Issiqlik manbai” DUKning issiqlik energiyasi bo‘yicha aholi va ulgurji iste‘molchilar uchun amaldagi va taklif etilayotgan narxlari (tariflari)**

T/r	Mahsulot nomi va qisqacha texnik tavsifi	O‘lchov birligi	O‘lchov birligining maksimal narxi, QQSsiz (so‘mda)		
			Amaldagi narx	Maqsadli tartibga solish organi tomonidan 2024-yil 1-iyundan boshlab aholi va ulgurji iste‘molchilar uchun belgilangan narx	Maqsadli tartibga solish organi tomonidan 2024-yil 1-oktabrdan boshlab aholi uchun belgilangan narx
<b>Navoiy shahar uchun</b>					
1	Aholi uchun	1 Gkal	75 000	90 000	108 000
2	budjet tashkilotlari uchun	1 Gkal	330 000	600 000	600 000
3	boshqa ulgurji iste‘molchilar uchun	1 Gkal	330 000	600 000	600 000
<b>Karmana tuman (Malikrabort qo‘rg‘oni uchun)</b>					
1	Aholi uchun	1 Gkal	100 000	90 000	108 000
2	budjet tashkilotlari uchun	1 Gkal	100 000	600 000	600 000
3	boshqa ulgurji iste‘molchilar uchun	1 Gkal	100 000	600 000	600 000

**Zarafshon shahar uchun**

1	Aholi uchun	1 Gkal	200 000	230 000	268 000
2	budjet tashkilotlari uchun	1 Gkal	660 000	950 000	950 000
3	boshqa ulgurji iste'molchilar uchun	1 Gkal	660 000	950 000	950 000

**Uchquduq shahar uchun**

1	Aholi uchun	1 Gkal	220 000	230 000	268 000
2	budjet tashkilotlari uchun	1 Gkal	700 000	950 000	950 000
3	boshqa ulgurji iste'molchilar uchun	1 Gkal	700 000	950 000	950 000

**Konimex tumani Zafarobod qo'rg'oni uchun**

1	Aholi uchun	1 Gkal	145 000	166 750	191 763
2	budjet tashkilotlari uchun	1 Gkal	470 000	800 000	800 000
3	boshqa ulgurji iste'molchilar uchun	1 Gkal	470 000	800 000	800 000